

ILK O'RTA ASRLARDA ZARAFSHON VOHASIDA RO'Y BERGAN MADANIY VA ETNIK JARAYONLAR

Salimov Jasurbek Muxtorjon o'g'li

Samarqand davlat universiteti arxeologiya kafedrasi magistranti

Anatatsiya: Ushbu maqolada O'рта Osiyo xududida yashagan xalqlar qadim davrdan berib yashab kelmoqda, bu xalqlar Yuechjilar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar Ayrim tadqiqotchilar esa "o'zbek" atamasini "o'zi bek", "erkin", "mustaqil" so'zidan kelib chiqib XII-XIV asrlarda xalqimizga nisbatan ishlatila boshlagan deb hisoblaydilar. O'zbek etnonimi kelib chiqishi davriga qarab o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlarini aniq bir vaqtda paydo bo'lgan deb aytib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: Qovunchi madaniyati, Yettisuv, o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq, Mahmud Qoshg'ariy.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotchi A.Ibrohimovning yozishicha, o'zbek xalqi asosan ikki etnik qatlamdan tashkil topgan. Birinchi qatlam Turon-Turkiston hududlarida shakllangan. Ikkinchi qatlam esa Volga (Itil) daryo bo'ylaridan tortib, to Xorazmning shimoli, Sirdaryoning o'рта va quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda shakllangan. Bu makon o'tmishda turli nomlar, chunonchi Dashti Qipchoq, Oltin O'rda, o'zbek viloyati, o'zbek mamlakati, o'zbek ulusi deb atalgan. Xalqimizning bu qatlamini shartli ravishda shimoliy qatlam deb atash mumkin. O'zbeklar o'рта osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, ko'hna va boy tarixga, yuksak madaniyatga ega xalq. Ularning nafaqat O'рта Osiyo, balki sobiq ittifoqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni ham salmoqli bo'lgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, jami o'zbeklarning soni 22 million, shundan 15 million 391 mingi (1979-yili qilingan hisob kitob) O'zbekistonning o'zida istiqomat qiladi. O'zbeklarning katta bir qismi O'рта Osiyoning boshqa davlatlarida shuningdek xorijiy mamlakatlarda (Afg'oniston, Xitoy Turkiya Saudiya Arabistoni AQSh, Germaniya va h.k) istiqomat qiladilar. Masalan Tojikistonda 1 millionga yaqin, Qirg'izistonda 333 ming, Qozog'istonda 216 ming 300, Turkiyada 179,5 ming, Afg'onistonda 1 milliondan ortiq, Saudiya Arabistonida 400 ming atrofida o'zbeklar istiqomat qiladi. Ularning ko'pchiligi asosan 20-yillarda o'tkazilgan milliy chegaralash 20-30 yillardagi repressiya sababli o'zga yurtlarga borib qolishgan.

MUXOKAMA VA NATIJALAR.

Jahondagi boshqa xalqlar kabi o'zbek xalqining shakllanishi ham uzoq yillar davomida sodir bo'lgan etnik jarayonlar mahsulidir. o'zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo'lib, o'рта Osiyoning markaziy viloyatlari - Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. o'zbek xalqining asosini hozirgi o'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baxtariylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, yarim chorvador qang'lilar, ko'chmanchi sak-massaget kabi etnik guruhlar tashkil etgan.



Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan turli davrlarda Movarounnahrda kirib kelgan etnik komponentlar ham o'zbek xalqi etnogenezida ishtirok etadilar. Yuqorida nomlari keltirilgan etnoslar asosan turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashganlar. Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yuqorida nomlari qayd etilgan qabila va elatlarning etnik jihatdan dastlabki aralashuv jarayoni natijasida o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, o'zbek xalqiga-xos antropologik tip(qiyofa) shakllanadi.

Mil. av. III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy va sug'diylar ittifoqi asosida tashkil topgan Qang' davlati davrida Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarning— tobora rivojlanib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustuvorlik qilib, o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat shakllanadi. Arxeologik asarlarda bu madaniyat Qovunchi madaniyati nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashlaricha, aynan shu davrlarga kelibr o'rta Osiyoning vodiy va vohalarida yashovchi aholi tashqi qiyofalarida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos o'rta Osiyo ikki daryo oralig'i antropologik tipi (qiyofasi) to'liq shakllanadi. o'zbeklar etnogenezida "qatnashgan navbatdagi etnik korponentlan kushonlar hamda IV-V asrlarda o'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung'oriyadan, Sharqiy Turkistoridan kirib kelgan xioniylar, kidariylar va eftaliylardir⁵.

Shuningdek, o'zbeklar etnogeneziga Turk xoqonligi davpda o'ra Osiyoning markaziy mintaqalari (Farg'ona vodiysi, Toshkent,(Zarafshon) Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari) va Xorazmga kelib o'troqlashgan turkiy etnik komponentlar faol ta'sir ko'rsatadi. Kirib kelgan turkiy komponentlar va mahalliy aholi o'rtasidagi etnik-madaniy munosabatlarning rivoji natijasida turkiy qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy- xo'jalik an'analar bilan jadal uyg'unlashuvi yuz berdi. VII asrdan boshlab o'lkamiz "Turkiston" nomi bilan atala boshlagan.

VIII asrdan arab va ajam xalqlarining o'rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi 'etnik jarayonlarga katta ta'sir etmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma'lum bir o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa-da, Movarounnahrda o'troq va yanm o'troq turkiyzabon aholi, sug'diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar hukmronligi ostida yashaganlar.

IX asrda Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o'z navbatida sug'diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'lib, bu qatlam asosining aksariyat ko'pchiligini o'troqlashgan turg'un turkiy etnoslar tashkil qilgan.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan sodir bo'lgan etnik jarayonlar o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'ldi⁶.

Aynan mazkur davrda " o'zbek xalqiga xos elatni belgilovchi hudydiy, madaniy- ma'naviy umumiylik, etnik o'zlikni anglash, ma'lum bir davlat doirasidagi etnik uyushqoqlik, din umiimiyligi kabi etnik onailar shakllangan. Bu davrda o'zbeklarning umum elat tili qaror topdi. Umuman olganda, elat shakllanishidagi muhim ahamiyatga ega



bo'lgan aksariyat etnik alomatlar shakllanib yetiladi⁷. Shunday qilib, asrlar osha yurtimizda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy yvaziyatda, muttasil davom etgan etnik jarayonlar natijasida IX-XII asr boshlarida - o'zbek xalqi shakllandi. Uning asosiy, o'q ildizini o'lkamizda muqim yashab kelgan tub yerli aholi tashkil etdi. Ikkinchi ildizi esa o'lkaga kirib kelgan turkiy elatlardir.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududlarida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy saklar, massagetlar, so'g'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, qang'lilar, dovonliklar, chochliklar tashkil etgan. Kelgindi aholi mahalliy aholiga qisman ta'sir etsada, uning genetikasini tubdan o'zgartira olmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'rta-asrlardagi-etnik-madaniy-jarayonlar-o'zbek-atamasi.html
2. Xurshid Davron. «O'zbek» atamasi (etnonimi)ning kelib chiqishi bilan bog'liq bir faraz haqida:Тоҳир Малик web-sahifasi
3. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
4. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
5. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
6. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
7. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
8. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
9. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
10. B.Axmedov tarixdan saboqlar 195 bet /Toshkent O'qtuvchi 1994 yil.
11. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T.: O'qituvchi, 1982.
12. Abu Mansur as-Saolibiy. Kitob latoif al-maorif. - T.: "Fan", 1987.
13. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - T., 2007